

SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'RNI VA ISTIQBOLLARI**Mardiyev Jamshid Shavkatjonovich**

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy jamiyat hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning insoniyat taraqqiyotiga ta'siri, uning imkoniyatlari va ehtimoliy xavflari falsafiy, ilmiy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining harbiy, iqtisodiy va ilm-fan sohalarida qo'llanilishi hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar haqida fikr yuritiladi. Maqolada sun'iy intellektni rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlashning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, super ong, ilm-fan, raqamli iqtisodiyot, texnologik taraqqiyot, malakali kadrlar, innovatsiya

Abstract : This article analyzes the formation and development of artificial intelligence and its role in modern society. The impact of artificial intelligence on human civilization, its potential benefits, and possible risks are examined from philosophical, scientific, and practical perspectives. The study also discusses the application of artificial intelligence technologies in military, economic, and scientific fields, as well as current reforms and initiatives in Uzbekistan aimed at developing this sector. Particular emphasis is placed on the importance of training highly qualified specialists for the effective integration of artificial intelligence into science and industry.

Keywords: artificial intelligence, digital technologies, superintelligence, science, digital economy, technological development, human capital, innovation

1. Kirish


Hozirgi kunda sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotining eng yuksak cho'qqisi yoki butun tamaddunimizga qarshi ulkan tahdid sifatida tasavvurda shakllanmoqda. U iqlim o'zgarishi, global salomatlik kabi insoniyat oldidagi eng dolzarb muammolarga javob topib, biologik insonni siqib chiqaradigan davrni boshlab bermoqda.

Sun'iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan [1].

2. Sun'iy intellektning rivojlanishi va tahdidlari

Sun'iy intellektning rivojlanishi insoniyat uchun yangi xavfning paydo bo'lishi bilan to'laqonli yadro urushi va ekologik falokatdan ham yomonroq. Faylasuf Nik Bostrom, nazariyotchi fizik Stiven Xoking, Silikon vodiysi magnatlari Ilon Mask va Bill Geytslar bu haqda jiddiy gapirishdi. Biroq, ular hali ko'pchilikni ishontira olishmadi.

Sun'iy intellekt o'ta kuchli ong (super ong) — barcha asosiy sohalarda insonning kognitiv imkoniyatlaridan ustun turadigan intellekt paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Aynan u kimadir asosiy tahdid, boshqasiga esa asosiy umiddek tuyuladi [2].



3. Amaliy misollar

Yanvar oyida “DeepSeek” sun’iy intellekt platformasiga bo‘lgan katta qiziqishdan ilhomlangan Xitoy yetakchilari sun’iy intellekt kompaniyalarini ushbu texnologiyadan foydalanishga undamoqda. Maqsad — AQSH va boshqa davlatlar bilan biznes va harbiy sohalarda raqobat qilish.



Xitoy harbiy-havo kuchlari sun’iy intellekt asosidagi biometrik testlardan foydalanib, uchuvchi nomzodlarni saralamoqda. Bu jarayon sog‘liq bilan bog‘liq xavflarni aniqlashda yordam beradi. Shuningdek, Xitoy tadqiqotchilari Xitoy armiyasining sun’iy intellekt texnologiyasini rivojlantirishda “Meta” kompaniyasining ochiq kodli Llama modelidan foydalanganini ma’lum qilishdi. Bu esa sun’iy intellektning harbiy qo‘llanilishi borasida yangi muhokamalarga sabab bo‘lmoqda [3].

Avval nazariy yo‘nalish bo‘lgan sun’iy intellekt, vaqt o‘tishi bilan dasturlash, matematika va nevrologiya sohasidagi rivojlanishlar bilan kuchaydi. Bugun esa sun’iy intellekt nafaqat ilmiy muhitda, balki kundalik hayotimizda – smartfonlardan tibbiyotgacha, moliya va transport sohaslarigacha keng qo‘llanilmoqda [4].

4. O‘zbekistonda sun’iy intellekt

Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘z navbatida sun’iy intellektni ilm-fanga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish talab etiladi. Negaki, aynan o‘z kasbining ustasi bo‘lgan mutaxassislar barcha jabhalarga sun’iy intellekt kirib borishida asosiy omil bo‘ladi.

Hozirda yurtimizda shu yo‘nalish bo‘yicha “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt” ixtisosligi oliy malakali kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik mutaxassisliklar nomenklaturasiga kiritildi va uning pasporti yaratildi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti ochildi [5].

5. Natija va xulosa

Keyingi o‘rinlarda tadqiqotchilar oldida internet taraqqiyoti, texnologik muammolarni bartaraf etish, raqamli iqtisodiyot uchun yangi vositalar yaratish bo‘lgan murakkab vazifalar turibdi.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilarning eng asosiy vazifalaridan biri esa sun‘iy intellektning ilm-fanga joriy etilishida yaqindan ko‘mak berishidir.

Aslini olganda sun‘iy intellektning asosiy vazifalaridan biri inson tasavvur eta olmaydigan narsalarni buyruqlar asosida tasvirlab berishdan iboratdir. Ushbu aqlli dastur hatto tasavvur eta olmagan yangi san‘at turlarini yuzaga keltirishi, inson qobiliyatini yanada rivojlantira olishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Suniy_intellekt (2025-yil 28-noyabr tahrir qilingan)
2. <http://old.islamonline.uz/index.php/item/8653-nima-uchun-suniy-intellektdan-qorqishimiz-kerak?> (2023-yil 25-yanvar)
3. <http://old.islamonline.uz/index.php/jamiyat/item/22412-xitoy-aqsh-bilan-raqobatda-suniy-intellektdan-keng-foydalanmoqda> (2025-yil 23-mart)
4. <https://najottalim.uz/blog/suniy-intellekt-ai-nima-va-u-qanday-ishlaydi?> (2025-yil 29-aprel)
5. <https://yuz.uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi> (2021-yil 5-noyabr)